

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH

***Tursunova Saida Isakovna***

*Termiz davlat pedagogika instituti*

*Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi*

*tel: +998915886422*

***Sultanova Tursunoy Ho'sinboy qizi***

*Termiz davlat pedagogika instituti*

*Boshlang'ich ta'lim fakulteti*

*2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyatini shakllantirish yo'llari, ta'lim jarayonida o'quvchilarini interfaol metodlar hamda o'yinlar asosida ijodkorligini rivojlantirish, uning pedagogik ahamiyati zamonaviy ta'lim yondashuvlari asosida o'quvchilar ijodiy faoliyatini tashkil etish usullari, yo'llari va samaradorligi haqida bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** Ijodiy faoliyat, ijod, ijodkorlik, ta'lim, muammo, muammoli ta'lim, evristika, evristik ta'lim, intellektual, Ya.A.Komenskiy, pedagogik ta'sir ko'rsatish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyatini shakllantirish mavzusini gapirishdan oldin "ijod", "ijodkorlik" kabi atamalariga to'xtalib o'tamiz. Bugungi kunda ilmiy, uslubiy adabiyotlarda, darsliklarda "ijod", "ijodkorlik" kabi atamalarni uchratib turamiz. Bu atamalarning adabiyot sahifalarida paydo bo'lganligi bejiz emas. „Ijod“ –so'zining lug'aviy ma'nosi: „yaratish“, „yangilikni kashf qilish“ kabi so'zlarini bildirib keladi. „Ijodkorlik“-faoliyatning turli holatlarida paydo bo'ladi. Qiziqish, ilhom, intilish va boshqalar ijodkorlikning inson ongida eng oliy tarzda paydo bo'lishidan, namoyon bo'lish jarayonini o'z ichiga oladi. Ijodkorlik sifat jihatdan yangi, moddiy va ma'naviy boylar yaratuvchi inson faoliyati jarayonidir. Ijodkorlik o'zida insonning mehnatda namoyon bo'lgan qobiliyatini ifodalaydi. Ob'ektiv olam qonuniyatlarini bilish asosida xilma –xil ijtimoiy ehtiyojlarini qanoatlantiradigan, yangi haqiqatni yaratadiganday mehnat ijodi bo'lishi mumkin. Ijod turlari bunyodkorlik faoliyati bilan belgilanadi: ixtiyorchi, tashkilotchi, ilmiy va badiiy mehnat va boshqalar. Ijodiy faoliyat uchun imkoniyatlar ijtimoiy munosabatlarga bog'liq.

Shu o'rinda biz O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning quyidagi s'zlarini keltirib o'tmokchimiz; “Hozirgi zamonda hamma

jabhalarda ilm, bilim va salohiyat suv bilan havoday zarurligi, har qaysi davlat faqatgina shu asosda taraqqiyotga erishishi, sodda qilib aytganda, inson bilak kuchidan ko‘ra ilm kuchi bilan ko‘proq daromad va obro‘-e‘tibor topishi mumkinligini hammamiz yaxshi anglaymiz”. Albatta, chunki shu jamiyatda yashaydigan inson keng faoliyatga tayyorlanar ekan, uning rivojlanishi, tafakkurini yangilashda o‘quv jarayoniga ilg‘or texnologiyalarini kiritish, o‘quvchilarning erkin, mustaqil fikrlash, ijodkorlik faoliyatlarini rivojlantirishni taqoza etadi. Ta‘lim –tarbiya jarayonida bolalardagi yashirin iste‘dodlarini yuzaga chiqarish, kichik maktab yoshidan boshlab o‘z faoliyatini namoyon qilishi uchun imkoniyat yaratish ,ulardagi ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish–kelajakda yuksak salohiyatli,ijtimoiy faol, o‘tkir zehni, kashfiyotchilik qobiliyatini namoyon eta oladigan, raqobatdosh, keng fikrlovchi, kadrlarni voyaga yetkazish muhim masalalardan hisoblanadi.

Bugungi kunda mustaqillik tufayli amalga oshirilayotgan ta‘lim islohotlari o‘z ishiga ijodiy yondashuvchi, fan, san‘at, ishlab chiqarishning jadal rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shadigan yuksak malakali kadrlar tayyorlashga bog‘liq. Boshlang‘ich ta‘limda o‘quvchilarining ijodiy faoliyatining shakllantirish, shart –sharoitlari deganda, avvalo, ana shu shart-sharoitlarning paydo bo‘lishi, amalga oshishi hamda rivojlanish jarayoni tushuniladi.

**Ular quyidagilardan iborat :**

1. O‘quvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirishda ularning bu borada egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalari;
2. Ijodiy faoliyatini shakllantirishda nazariy bilimlar bilan amaliyotning aloqadorligi ;
3. Ijodiy faoliyatini shakllantirishga doir mashg‘ulotlar, evristika, muammoli vaziyatlar yaratish ;
4. O‘quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirishga texnologik yondashuvlar;  
Bu shar-sharoitlar quyidagicha amalga oshadi:
  - dastur mateillarini qay darajada o‘zlashtirganligi;
  - mavzularga doir asosiy tushuncha va qoidalarni o‘zlashtirganligi;
  - tanlagan mavzu bo‘yicha topshiriqlarni mustaqil bajara olishi;
  - o‘rganilayotgan mavzulardagi asosiy muammolarni anglab olishi;
  - topshiriqlarni bajarishda o‘quv ashyolari va texnika vositalari ,axborot texnologiyasidan foydalana olishi;
  - mavzu bo‘yicha o‘z oldiga erishiladigan maqsadlarni qo‘ya olishi;
  - o‘z variantini tavsiya eta olishi va hakoza.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy faollikka undash davomida o‘qituvchi :

1. O‘quvchilarni obrazli fikrlashga undashi;
2. Aniq muammolarni burro ifodalashi;

3. Fikrning doimo tugallangan jumla bilan ,hamda muhim joylariga urg’u berib ajratgan holda ifoda etilishi;
4. Xushmuammalali va ziyrak bo’lishi ;
5. Quyidagi so’z birikmalaridan foydalanishi : „faraz qiling ‘, „tasavvur qiling’’ , „ijodiy parvoz eting’’ va shu kabilar .

Boshlang’ich sinf o’quvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirishda interfaol metodlar va o’yinlardan foydalanish.

Boshlang’ich sinf o’quvchilariga interfaol metodlar va o’yinlar nimaga kerak? Bu metod va o’yinlarning dars jarayoniga qanday bog’liqligi hamda samaradorligi mavjud? Yuqorida aytilayotgan mulohazalarga birma-bir misollar orqali aniqlik kiritamiz .Boshlang’ich sinf o’quvchilarining ijodiy faoliyatini shakllantirishda evristik va muammoli ta’limdan tashqari bilishga yo’naltirilgan ,ilmiy asoslangan interfaol metodlar va o’yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.Shu yerda «evristik» va «muammoli ta’limga» qisqacha to’xtalib o’tamiz .

Ta’lim – bu bilim berish, malaka va ko’nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasidir. Ta’lim jarayonida ma’lumot olinadi va tarbiya amalga oshiriladi. Ta’lim tor ma’noda o’qitish tushunchasini anglatadi. Evristika –yunoncha «heuriska»–„qidiraman’’ , „topaman’’ „ochaman’’- degan ma’nolarini anglatadi. Evristika o’qitishning mazmuni va maqsadi o’quvchilar tomonidan o’zining mustaqil fikrini loyihalash (konstruksiyalash) maqsad qilib olinadigan, ta’limning maqsadi va mazmuni hamda uni tashkil qilish jarayoni, tashxis qo’yish va tushunib yetish evristik ta’lim va o’qish hisoblanadi. Evristik o’qitishdagi vaziyat o’qitishning kalit elementi hisoblanadi. Bunday vaziyat o’quvchining bilmasligidan faollashtiradi, uning maqsadi o’quvchi tomonidan shaxsiy g’oyaning tug’ilishini, gipotezalar, sxemalar tuzishga yo’llaydi. Evristik o’qitishda ta’lim natijasini aytib bo’lmaydi. Har bir o’quvchidan turli javoblarni olish mumkin. Evristik o’qitishda o’quvchi oldingi olgan bilimni o’zlashtiradi, keyin uni ijodiy o’zlashtirish orqali o’zining loyihasida qo’llaydi. Bu yerda oldingi bilimlarni o’rganish orqali kelajakka intilish shiori amal qiladi.

«Muammo» – so’zi arabcha so’z bo’lib „yechilishi qiyin bo’lgan masala ‘, „jumboq’’, „boshqotirma ‘’ kabi ma’nolarni anglatadi. Muammoli ta’lim –bu ta’lim o’quvchilarning fikrlash jarayonini ishga solib, ularning mavhum tafakkuri, analitik-sintetik faoliyatiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Chunki, bu texnologiya o’quvchidan muammo asosida bayon etilgan o’quv materialining yechimini topishini taqozo qiladi. O’quvchilar materiallarni tayyor holda emas, balki o’zlari uchun yangi faktlar va hodisalarni ularga ilgari ma’lum bo’lgan bilimlarga tayanib taqqoslash yo’li bilan tushuntirib borishlari kerak bo’ladi. O’quv jarayoni o’quvchilar tafakkurining yuksak faolligiga erishib, ularning mustaqilligini asta-sekin o’stirib borish yo’li bilan o’tadi.

Ta’lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalari, darsga oid bo’lgan o’yinlarni o’quv jarayonida qo’llashga bo’lgan qiziqish kundan –kunga ortib, yanada takomillashib bormoqda. Bunday bo’lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o’quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o’rgatilgan bo’lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va ularni egallayotgan bilimlarni o’zlari qidirib, mustaqil tarzda izlab topishi, mustaqil fikrlashi va o’rganishi, tahlil qilishi hatto yakuniy xulosalarini ham o’zlari keltirib chiqarishga o’rgatadi. O’qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo’naltiruvchilik, o’rgatuvchilik vazifasini bajaradi .

Bugungi kunda ta’limda „Aqliy hujum “, “Fikrlar hujumi “, “Tarmoqlar metodi” ,”Sinkveyn”, “BBB” ,”Beshinchisi ortiqcha “, ”6\*6\*6”, “Bahs munozara”, ”Rolli o’yin”, “FSMU”, ”Kichik guruhlarda ishlash“, “Yumaloqlangan qor“, “Zigzag”, “Oxirgi so’zni men aytay“ kabi zamonaviy texnologiyalar qo’llanmoqda.

Boshlang’ich ta’limda o’yin ijodiy faoliyatining bir shaklidir. Bunda o’quvchi ijtimoiy va moddiy borliqni bilish hamda anglash asosida emotsional –xissiy, intellectual – axloqiy qobiliyatlari rivojlanadi. O’yinlar, ularning inson taraqqiyotidagi o’rni haqida psixologiya, etnografiya, madaniyat, pedagogika fanlarida bir qator tadqiqot ishlari olib borilgan.

XIX asrning oxirida nemis olimi K.Gross o’yinlarni tizimli o’rganishga harakat qilgan bo’lsa, nemis psixologi K.Byuller o’yinlarda „qoniqish hosil qiluvchi “ faoliyat sifatida tadqiq etadi. L.S.Vigotskiy, A. N.Leontyevlar fikricha, o’yinlarni nazariy jihatdan ijtimoiy tabiatga ko’ra ma’lum faoliyatiga yo’naltirilganligi bilan bog’lab,uni tadqiq etgan bo’lsalar, D.E.Elkonin shaxs xulqini boshqarishni tarkib toptirib, uni takomillashtiruvchi faoliyat sifatida talqin etadilar. Lekin o’yinlarni yagona eng muhim asosiy xususiyati uning ta’limdagi ahamiyatligidir.

O’yinlarda bolaning xulqi erkin shakllanadi va ijtimoiylashadi. Intellektual ijodiy o’yinlar ham ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O’yinda shaxsning kommunikativ sifatlashni rivojlantirish, intellektual savodxonligi, ziyakligi, qarorlar qabul qilishda ta’lim zukkolikini rivojlantirish, xalq ijodkorligiga oid bilimlarga ega bo’lishi sifatidagi salohiyatli o’quvchilarni aniqlash va ularni rag’batlantirishga oid maqsad va vazifalar qo’yiladi. Teleo’yinlarda namoyish etiladigan „O’yla, izla, top!”, “Oltin toj” kabilar shular jumlasidandir. Kichik yoshdagi o’quvchilarning intellektual darajasini rivojlantirish uchun sinfda va sinfdan tashqari mashg’ulotlarda shunday o’yinlarni tashkil qilish mumkin.

Albatta, boshlang’ich sinf o’quvchilarining ijodiy faoliyatini shakllantirish, diqqatini bir joyga jamlash, xotirasini yanada mustahkam qilish, mustaqil fikrlay olish jarayonini tashkil qilishda turli xil didaktik o’yinlar, metodlar va usullarning ahamiyati

e'tiborga loyiqdir. Jumladan, 3-sinf „Ona tili“ darslarida qo'llash mumkun bo'lgan didaktik o'yinlar mazmunini o'rganib chiqamiz: Didaktik o'yinlar mazmuniga, qilingan tasnifiga ko'ra asoslanib joylashtiriladi. Tinch o'yinlarga quyidagilarni misol qilib ko'rsatish mumkin: „O'zim tekshiraman“ , „Hikoya“ , „U kim?, Bu nima?“ , „Tapog'on“ , „Noto'g'ri jumla“ , „Harflarni top“ , „Davom ettir“ , „Rebus“ , „Sirli so'z“ kabi o'yinlar mavjud. Masalan: „Hikoya“ o'yini tushuntiradigan bo'lsak, bu o'yinda o'qituvchi doskaga bir necha so'z yozib qo'yadi. O'quvchilar mustaqil ravishda shu so'zlar bo'yicha hikoya tuzadilar. Hikoya tuzish jarayonida o'quvchilar lug'at boyligi bilan birgalikda, gaplarni to'g'ri tuzish, tovushlarni to'g'ri talaffuz etish va mustaqil fikrlash malakasi shakllanadi. O'quvchilarning vaqti – vaqti bilan rag'batlantirish, ularning o'ziga bo'lgan ishonchini orttiradi. Bu o'yindan ona tili darslarida yoki darsdan tashqari mashg'ulotlarida, to'garaklarda qo'llash joizdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirish jarayonida, o'qish darslarida garchi ilmiy jihatdan bo'lmasa-da, amaliy jihatdan turli janrga mansub asarlar o'qib o'rganadilar. O'qish darsliklarida, asosan, hikoya, ertak, she'r, masal, maqol, rivoyat va topishmoq kabi janrdagi asarlar kiritilgan. 1-sinfda maqollarni to'g'ri o'qish va yod olishga e'tibor ko'proq qaratiladi, 2-sinfda esa o'quvchilardan matn mazmuniga mos maqollar aytishni talab qilish mumkin. 3-4 sinflarda maqollar maxsus darslarda va badiiy asarni o'rganish jarayonida ham muntazam o'rganib boriladi. Bu sinflarda maqollarni o'rganishdan ko'zlangan maqsad o'quvchilar dunyoqarashini shakllantirish, to'g'ri va ongli o'qish malakalarini takomillashtirish, maqoldagi har bir so'zning va yaxlit maqolning ma'nosini to'liq idrok etishga erishishdir. O'quvchilar o'qilgan matn ichidan maqollarni, hikmatli so'zlarni o'zi mustaqil topa olish ko'nikmasini egallashi, ular yordamida o'qilgan asarlar yuzasidan to'g'ri hukm chiqarishga o'rganishlari zarur. Hikoya kichik hajmli badiiy asar bo'lib, unda kishi hayotidagi ma'lum bir voqea ,hayotning muhim tomonlari umumlashtirilib tasvirlanadi.Hikoya mazmunan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mos janr hisoblanadi .Kichik yoshdagi o'quvchilarni qahramonlarning xatti-harakati, tashqi ko'rinishi, portret tasviri, voqea –hodisalar haqidagi hikoyalar ko'proq qiziqtiradi. Shuning uchun bolalarni hikoya bilan tanishtirish uning sujetini tushuntirishga olib boriladi. O'quvchilar qahramonlarning ma'naviyatiga bo'lgan qiziqishlari tufayli hayotning nurli va qorong'u tomonlari xususida muayyan tushunchaga ega bo'la boshlaydilar. Ularda go'zallik va nafosatga muhabbat, yovuzlikka nisbatan nafrat tuyg'usi hikoyalar bilan tanishish va uni tahlil qilish davomida shakllanib boradi. Hikoya tahlili adabiy tur sifatida o'ziga xos xususiyatlari va vazifasidan kelib chiqib ish ko'rishni taqozo etadi. Undagi har bir so'z, ibora, gap yozuvchining fikrini ifodalashga xizmat qiladi. Hikoya matni uning mazmunini yoki badiiy xususiyatlarini o'rganishdagina emas, tahlilning ifodali, adabiy, shartli yoki ijodiy o'qish, muammoli usullardan foydalanish uchun ham manba bo'lishi lozim.

Boshlang'ich sinflarda hikoya sujeti, kompozitsiyasi, qahramonlarini o'rganish bo'yicha turli tahlillar matn ustida ishlash asosida olib boriladi. Bunda o'quvchining ijodiy faolligi ortadi, ijodiy fikrlash doirasi kengayadi. She'rni o'qish darslarida asosiy ish turi ifodali o'qish hisoblanadi. Boshlang'ich sinflarda lirik she'rlarni ifodali o'qish va tahlil qilish o'qituvchidan katta mahorat talab qiladi. She'riy ohangni his qilmaslik, matndagi so'zlarning ma'nosini to'la tushunib yetmaslik she'r yodlashni zerikarli mashg'ulotga aylantiradi. 4-sinfda Q.Hikmatning „ Qish to'zg'itar momiq par“ she'rini o'rganishda albatta tabiat manzaralarini izohlash talab etiladi. She'rni o'qishdan oldin unda tasvirlangan yil fasllari haqida suhbat o'tkaziladi yoki she'r mazmunini tushunish uchun o'quvchilar bilishi lozim bo'lgan voqealarni o'qituvchi qisqa qilib aytib beradi. Ushbu she'rni boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'rgatishda she'r nima haqida ketayotganligi, unda tasvirlangan yil fasllari, ya'ni qishning o'ziga xos belgilari, qishda o'ylanadigan o'yinlar, qish manzarasi yuzasidan savol – javob, maqollar aytishadi, ayrim qushlarning o'lkamizni tark etib janubga uchib ketishlari, qishda sovuqqa mos issiq kiyimlarning kiyilishi haqidagi tushunchalari aniqlashtirilib, to'ldiriladi. Xullas, ushbu she'r haqida to'la tasavvur hosil qilingandan keyin, o'qituvchi ushbu she'rni ifodali qilib bir marta o'zi o'qib beradi, o'quvchilar bilan bir marta o'qib chiqishadi. O'qituvchi she'rni shunday o'qishi kerakki, o'qiganda ushbu she'r haqida o'quvchilar uning asosiy mazmunini anglashlari, ularga jonli so'z kuchliroq ta'sir etsin. Shunday qilib boshlang'ich sinf o'quvchilariga hikoya, ertak, she'r, topishmoq, maqol, masal, rivoyat va hokazo asarlarni o'qishga o'rgatishda, ularning ijodiy faoliyatini shakllantirishda, boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan pedagogik mahoratni talab qiladi.

Buyuk chex olimi, pedagog Ya.A.Komenskiy har bir bola tarbiya-ta'lim olishi lozimligini o'z asarlarida keltirib o'tgan. Komenskiy fikricha, tarbiyaning maqsadi kishini mangulik dunyosiga tayyorlashdan iborat bo'lib, uni aqliy, axloqiy va diniy tarbiya bilan amalga oshirish mumkin. U bolaga samarali pedagogik ta'sir ko'rsatish uchun yosh xususiyatini hisobga olish lozimligini ta'kidlaydi. Komenskiy bolalarning o'qish yoshini ona maktabi (tug'ilgandan 6 yoshgacha), xalq maktabi (6—12 yosh), gimnaziya (12—18 yosh), akademiya (18—24 yosh) kabi bosqichlarga bo'ladi. Komenskiy jahon ta'limi tarixida birinchi bo'lib ta'limning sinf-dars tizimini ishlab chikdi, ta'lim beriladigan vaqtning davomiyligini, bilim oladigan o'quvchilar sonini, yoshini belgiladi. Darsning rejalashtirish, maqsadga muvofiq olib borish, ta'lim beriladigan vaqtni o'quv yili, choraqlar hamda o'qish kunlariga ajratish yo'llarini ko'rsatdi. Ta'tillar va ularning davomiyligi, kundalik va yillik o'quv soatlari miqdorini belgilab berdi. Uning pedagogik karashlari hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Bu tarixiy axborotlarni keltirishdan maksad buyuk allomalarning ta'lim va tarbiyani o'z vaqtida olib borish taqoza etishini isbotlab berganidir.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilari bilim olishning poydevori hisoblanar ekan, mazkur sinfdan boshlab, o'quvchilarda ijodiy faoliyatini rivojlantirishni taqozo etadi. Shunday ekan o'quvchilarning ijodkorli, ijodiy faoliyatini rivojlantirish lozimligi kun tartibdagi muammo bo'lib qoldi. Hozirgi kunda, 1-4-sinf o'quvchilariga ijodiy faoliyatini rivojlantirishda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini e'tiboriga olish, ta'limni samarali tashkil etishda darslarni noan'anaviy tarzda o'tkazish, darslarda innovatsion metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish, ularni har tomonlama yetuk bo'lishiga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar va ta'limiy o'yinlardan, zamonaviy axborot - kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. Shunday qilib boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy faoliyatini shakllantirishda, yuqorida aytib o'tilganidek ertak, hikoya, maqol, masal, she'r kabi asarlarni o'rgatishda, she'rni yodlatishdan oldin o'qituvchi mag'zini chaqib berishi, o'quvchilarda ushbu aytilayotgan ma'lumotlarni anglab yetishi, faraz qilishlari va hokozalar o'quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

"O'quvchini mehnat qilishga o'rgat, uni nafaqat mehnati sevishga, u bilan shunday uyg'unlashishga ko'niktirginki, toki mehnat uning vujudga singib ketsin, uni shunga o'rgatki, uning uchun o'z kuchi bilan biron-bir narsani bilib ololmaslik aqlga sig'maydigan holat hisoblansin, u mustaqil o'ylamog'i, izlamog'i, o'zini ko'rsatmog'i, o'zining uyg'onmagan qobiliyatlarini rivojlantirmog'i, o'zini sobitli inson qilib yetishtirmog'i lozim "-deydi, A. Disterveg.

### **Foydalangan adabiyotlar :**

1.Insonni tarbiyalamoq-kelajakni tarbiyalamoq, Tursunova Saida Isakovna, Termiz davlat Pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi <https://doi.org/10.5281/zenodo.683066>

2.“Maktab ta'limni milliylashtirishning pedagogik asoslari”. Tursunova Saida Isakovna, Termiz davlat Pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi <https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/855/790>.

3.G.Mardonova. "Boshlang'ich sinflarda ta'lim-tarbiyani takomillashtirish". "Sharq" 1998.